



INTERNET XIZMATLARINI TAQDIM ETISH VA TARIFIKATSIYALASH QOIDALARI (yuridik shaxslar, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatni yuritayotgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lgan shaxslar uchun).

3.1. Umumiy qoidalar

3.1.1. Ushbu qoidalar yuridik shaxslar, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatni yuritayotgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lgan shaxslar uchun “Internet, Uz-IX va TAS-IX tarmoqlariga kirish” Asosiy xizmatni taqdim etish tartibini belgilaydi.

3.1.2. Xizmatlar faqat o‘z ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ulardan tijorat maqsadlarida foydalanish taqiqlanadi.

3.1.3. Operator tomonidan taqdim etilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari Asosiy va Qo‘shimcha xizmatlarga bo‘linadi. Asosiy va Qo‘shimcha telekommunikatsiya xizmatlari aloqa va axborotlashtirish sohasidagi ijroiya organining normativ-texnikaviy hujjatlarini inobatga olgan holda, amaldagi Litsenziyalar, shuningdek, Operatorga yoki O‘zbekiston Respublikasida umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tizimini tashkil qiluvchi telekommunikatsiya tarmoqlarining boshqa Operatorlariga tegishli bo‘lgan tarmoqlar va aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari bilan belgilanadi va Operatorning Narxnomalari hamda tarif rejalarida ko‘rsatiladi. Asosiy va Qo‘shimcha telekommunikatsiya xizmatlarining ro‘yxati, Abonentlar belgilangan tartibda oldindan ogohlantirilishi sharti bilan, Operatorning Narxnomalari va tarif rejalariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi munosabati bilan o‘zgarishi mumkin.

3.2. Xizmatlarni taqdim etish va tarifikatsiyalash qoidalari

3.2.1. Xizmatlar tasdiqlangan va amaldagi Tariflar narxnomasiga (Tarif rejalariga) muvofiq taqdim etiladi.

3.2.2. Tarifikatsiyalash faqatgina Internet tarmog‘idan kiruvchi trafik uchun amalga oshiriladi. Davr uchun kiruvchi trafik hajmining belgilangan limitidan ortiq sarflangan chiquvchi trafik hajmi tarifikatsiyalanadigan trafik hajmiga kiritiladi. **Belgilangan limitdan ortiq foydalanilgan trafikning butun hajmi tanlangan tarif rejasiga muvofiq tarifikatsiyalanadi.**

3.2.3. Uz-IX, TAS-IX tarmoqlariga kiruvchi tarmoqlarning diapazonlari doirasidagi trafik, shuningdek, Operator tarmog‘i doirasidagi ichki trafik tarifikatsiyalanmaydi.

3.2.4. Internet tarmog‘iga ulanishning chiquvchi tezligi kiruvchi tezlikdan oshmaydi. Tarif rejalarida belgilangan tezlikka nisbatan chiqish tezligi oshgan hollarda, to‘lov (tarif rejalarida boshqa shartlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa) kiruvchi tezlik uchun tariflar bo‘yicha yechib olinadi.

3.2.5. Abonent to‘loviga kiritilgan trafik limitining hajmi tarif rejasida belgilangan bo‘lib, sutkaning vaqtiga bog‘liq bo‘lmaydi (agar boshqasi yuridik shaxs bo‘lgan Abonentlar uchun

amaldagi Tariflar narxnomasidagi (Tarif rejalaridagi) shartlar va izohlarda aytib o'tilmagan bo'lsa).

3.2.6. Taqdim etilgan trafik limitining sarflanmagan hajmi keyingi kalendar oyiga o'tkazilmaydi.

3.2.7. Abonent to'lovining narxi yuridik shaxslar uchun Abonent tomonidan tanlangan tarif rejasining narxidan iborat.

3.2.8. Birinchi ulanishda Abonentning shaxsiy hisobidan Ro'yxatga olish to'lovi (aksiya davrlari va sh.k. bundan mustasno) va Abonentlar (yuridik shaxslar) uchun tegishli tanlangan tarif (tarif rejasi) miqdoridagi Abonent to'lovi yechib olinadi.

3.2.9. Kalendar oyi davomida Abonent birinchi marta ulanganda (oyning 1-sanasidan emas), Abonent to'lovining miqdori va Abonent to'lovi kiritilgan trafik limiti Abonent ulangan kundan boshlab, joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha proporsional ravishda qayta hisoblab chiqiladi, bunda, faollashtirish vaqtidan qat'i nazar, birinchi sutka uchun abonent to'lovi to'liq kalendar kuni uchun hisoblanadi. Oldindan to'langan to'lov va hisobdan chiqarilgan proporsional Abonent to'lovi o'rtasidagi farq Abonentning kundalik saldosi aks ettiriladi va undan limitdan ortgan trafik uchun to'lovni amalga oshirish yoki keyingi oyning Abonent to'lovini amalga oshirish uchun foydalanish mumkin.

3.2.10. Har bir kalendar oyining birinchi sanasiga o'tar kechasi billing tizimida Abonent tomonidan o'tgan oy uchun joriy oyda to'lov to'liq amalga oshirilganligi holati tekshiriladi. Agar hisob to'langan bo'lsa, u holda kelgusi oy uchun Abonent to'lovi, Abonent shaxsiy hisobida mablag'lar mavjudligidan qat'i nazar, to'liq hajmda hisoblanadi ("testlash", "ixtiyoriy blokirovka", "majburiy blokirovka", "tugatish yoki yopish jarayonida" maqomlarida bo'lgan Abonentlar bundan mustasno).

3.2.11. Agarda Abonent oyning birinchi sanasi kechasiga qadar joriy oyda taqdim etilgan hisob bo'yicha to'lovni to'liq amalga oshirmagan bo'lsa, kelgusi oy uchun Abonent to'lovi hisoblanmaydi, Abonent moliyaviy blokirovkaga tushadi va to'lov amalga oshirilgunga qadar xizmatlardan foydalanish imkoniyati bloklanadi (VIP-maqomidagi Abonentlar bundan mustasno).

3.2.12. Agar Abonent yangi oyning o'rtasida avval to'lanmagan hisob bo'yicha to'lovni amalga oshirsa, moliyaviy blokirovka holatida bo'lgan Abonent faol maqomga o'tadi, xizmatlarga kirish imkoniyati qayta tiklanadi va bunda joriy oy uchun Abonent to'lovi proporsional ravishda hisoblanishi amalga oshiriladi. Bunday hollarda Abonent to'lovining miqdori hisob bo'yicha to'lovlar to'liq amalga oshirilgan kundan boshlab, joriy oyning oxirigacha bo'lgan kunlar soniga mutanosib ravishda belgilanadi. Hisob bo'yicha to'lovlar amalga oshirilgan kun vaqtidan qat'i nazar, birinchi kun uchun Abonent to'lovi to'liq miqdorda hisoblanadi. Cheklangan tarif rejasidan foydalanilgan hollarda, Abonentga trafikning mutanosib hajmi taqdim etiladi.

3.2.13. Shuningdek, billing tizimida, Abonent shaxsiy hisobidan Abonent tomonidan Shaxsiy kabinetda yoki Sotuv va xizmat ko'rsatish ofisida faollashtirilgan Asosiy xizmat bilan bog'liq bo'lgan Qo'shimcha xizmatlar bo'yicha to'lovlar avtomat ravishda yechib olinadi.

3.2.14. Operatorning billing tizimida barcha yozuvlar va oxirgi 12 oy ichida Abonentning shaxsiy hisobidan yechib olingan va shaxsiy hisobida hisoblangan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlar Shaxsiy kabinetda saqlanadi va aks ettiriladi.

3.3. Tarif rejasini almashtirish qoidalari

3.3.1. Abonentlar UZTELECOM sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga yozma arizani taqdim etish orqali tarif rejasi almashinishi kutilayotgan sanadan kamida 5 ish kuni avval quyidagi usullardan biridan foydalangan holda, tarif rejasini almashtirish imkoniyatiga ega:

- Abonentning dastlabki arizasi bo'yicha keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan boshlab tarif rejasini almashtirish uchun buyurtma berish mumkin. Tarif rejasi almashtirilishini bekor qilish ham keyingi kalendar oyining birinchi sanasiga qadar Operatorga o'z vaqtida yozma ravishda xabar berish sharti bilan amalga oshiriladi;

- joriy oy davomida arizada ko'rsatilgan sanadan boshlab. Ushbu holda, avvalgi va yangi tarif rejasi bo'yicha xizmatlar narxining proporsional hisob-kitobi, ishlatilgan va oy oxirigacha qolgan kunlar soniga qarab, amalga oshiriladi. Oyning 1-sanasidan boshlab tarif rejasini o'zgartirish paytigacha avval hisoblangan Abonent to'lovi va taqdim etilgan xizmatlar limitlari avvalgi tarif rejasi shartlari bo'yicha quyida keltirilgan formula tavsifiga muvofiq qayta hisoblanadi. Tarif rejasi o'zgargan kundan boshlab, kalendar oyning oxirigacha Abonent to'lovining narxi va taqdim etilgan xizmatlar limitlari hajmining hisob-kitobi yangi tarif rejasi shartlariga muvofiq qolgan kunlarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi, bunda, tarif rejasi o'zgargan vaqtdan qat'i nazar, joriy kun uchun Abonent to'lovi yangi tarif rejasi shartlariga muvofiq to'liq kalendar kun uchun hisoblanadi.

Joriy oy davomida tarif rejalarini o'zgartirish qoidalari quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

Trafigi cheklanmagan tarif rejasini o'zgartirish uchun

$$A / B * C = D$$

Bu yerda:

"A" - Tarif rejasi bo'yicha Abonent to'lovi;

"B" - Joriy kalendar oyidagi kunlar soni;

"C" - Joriy tarif rejasi bo'yicha tarif rejasi o'zgargan kunga qadar ishlatilgan kunlar soni;

"D" - Abonent to'lovini qayta hisoblash uchun tarif rejasi bo'yicha o'zgargan paytgacha amalga oshirilgan to'lovlar miqdori.

Trafik hajmi cheklangan tarif rejasini o'zgartirish uchun

1) $A / B * C = E$

2) $F / B * C = G$

3) $H - G = K^*$

4) $K * I = J$

5) $E + J = D$

**agar K natija salbiy bo'lsa, Abonent to'lovini qayta hisoblash uchun E qiymati qo'llaniladi, agarda ijobiy bo'lsa, keyingi hisob-kitob quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:*

Bu yerda:

“A” - Tarif rejasi bo'yicha Abonent to'lovi;

“B” - Joriy kalendar oyidagi kunlar soni;

“C” Tarif rejasi o'zgargan kunga qadar joriy tarif rejasi bo'yicha xizmatlardan foydalanilgan kunlar soni;

“D” - Abonent to'lovini qayta hisoblash uchun tarif rejasi o'zgargan paytgacha tarif rejasi bo'yicha hisoblangan to'lovlar summasi;

“E” - Xizmatlardan foydalanilgan kunlar soni bo'yicha mutanosiblashtirilgan Abonent to'lovi summasi;

“F” - Abonent to'lovi doirasidagi trafik limiti;

“G” - Abonent to'lovi kiritilgan xizmatlardan foydalanilgan kunlar soniga ko'ra mutanosiblashtirilgan trafik hajmi;

“H” - Tarif rejasi o'zgartirilgan kunga qadar aslida ishlatilgan trafik hajmi;

“I” - Limitidan ortiq ishlatilgan 1 MB trafik uchun narx;

“J” - Limitidan ortiq ishlatilgan trafik hajmining summasi;

“K” - Aslida ishlatilgan va tarif rejasi doirasida taqdim etilgan mutanosiblashtirilgan trafik o'rtasidagi farq.

3.3.2. Tarif rejasini oyda faqat bir marta almashtirish mumkin.

3.3.3. Tarif rejasini almashtirish operatsiyasi bepul amalga oshiriladi.

3.3.4. Yangi ulanishni amalga oshirish, shuningdek, arxiv tarif rejalariga o'tish mumkin emas. Agarda Abonent arxiv tarif rejasidan yangi tarif rejasiga o'tsa, keyinchalik arxiv tarif rejasiga qaytib o'tish mumkin bo'lmaydi.

3.4. Yuridik shaxs bo'lgan Abonentni blokirovka qilish va xizmatni o'chirib qo'yish qoidalari

3.4.1. Mazkur shartlar doirasida Abonentlar (yuridik shaxslar) uchun Operator Xizmatlaridan foydalanishni blokirovka qilish quyidagi tartibda amal oshiriladi:

3.4.1.1. Abonentning joriy vaqtda qarzi bo'lmagan hollarda (ya'ni, oxirgi taqdim etilgan hisob-fakturada ko'rsatilgan butun summa hisob-fakturada belgilangan muddatda to'langan bo'lsa), Abonent shaxsiy hisob raqamidagi saldodan qat'i nazar, blokirovka qilinmaydi.

3.4.1.2. Bunda, agar Abonentning joriy vaqtdagi qarzi joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha saqlanib qolgan bo'lsa, Xizmatlardan foydalanish imkoniyati avtomat ravishda o'chirib qo'yiladi, Abonent hisobining maqomi keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan "Blokirovka qilingan" maqomiga o'tkaziladi. Joriy vaqtdagi Abonent qarzining tegishli summasi to'langanda Xizmatlardan foydalanishni faollashtirish avtomat ravishda amalga oshiriladi.

3.4.1.3. Shaxsiy hisobning "Blokirovka qilingan" maqomi Abonent bilan tuzilgan Shartnoma holatini nafaol holatga o'tkazadi va Operatorning billing tizimi ushbu Shaxsiy hisob bilan hech qanday amallarni (shu jumladan hisobdan chiqarishlarni) bajarmaydi, bunda, Asosiy xizmat va u bilan bog'liq xizmatlardan foydalanish blokirovka qilingan bo'ladi.

3.4.1.4. Agarda blokirovka qilingan Abonent o'z Xizmatlarini yangidan faollashtirishni istasa, u Abonent to'lovi va ulangan qo'shimcha xizmatlar bo'yicha joriy qarzlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishi lozim, bunda Abonent to'lovi miqdori to'lov kiritilgan sanadan joriy oyda qolgan kunlar soniga mutanosib ravishda hisoblanadi.

3.4.1.5. Agar Abonent (yuridik shaxs) 1 to'liq kalendar oyidan ko'p vaqt davomida "Blokirovka qilingan" maqomda bo'lsa, billing tizimi Abonent shaxsiy hisobining maqomini "Tugatilgan" maqomiga o'zgartiradi. Operator "Tugatilgan" maqomda bo'lgan Abonent bilan Asosiy xizmat va bog'langan Qo'shimcha xizmatlar bo'yicha tuzilgan shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.

3.4.1.6. Yuridik shaxs bo'lgan Abonentning Operator Xizmatlaridan uzib qo'yilishi va u bilan tuzilgan shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilinishi Abonentni kerakli tarzda rasmiylashtirilgan hisob-fakturalarda ko'rsatilgan qarzlarni summasini to'lashdan ozod etmaydi.

3.4.1.7. Shaxsiy hisob raqamlari "Tugatilgan" maqomda bo'lgan sobiq Abonentlar eski shartnomalarni tiklay olmaydilar va ular Xizmatlarga ulanish istagini bildirganda yangi Abonentlar uchun mo'ljallangan barcha tegishli qoidalarni qo'llagan holda, yangi Abonentlar sifatida ko'rib chiqiladi.

3.5. Abonentning tashabbusi bilan xizmatni o'chirib qo'yish yoki shartnomani bekor qilish qoidalari

3.5.1. Abonent tashabbusi bilan Xizmatlarni o'chirib qo'yish istagi bildirilganda:

3.5.1.1. Abonent Operatorning Sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga yozma ravishda ariza berishi kerak.

3.5.1.2. Xizmatlar uchun Operator oldidagi mavjud qarzlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishi kerak.

3.5.1.3. Abonent tashabbusi bilan va u bilan kelishilgan holda Operator Xizmatlaridan uzib qo'yish quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan. Bunda, Abonent Operatorga tegishli bo'lgan barcha uskunalarni to'liq, but va ishga yaroqli holatda keyingi 3 kun ichida qaytarishi lozim;

- xizmat o'chirilishi to'g'risidagi ariza joriy oyning 25-sanasidan kechiktirmasdan taqdim etilishi sharti bilan, joriy oy davomida. Xizmatni o'chirib qo'yish muddati - ariza berilgan kundan boshlab (Abonent tomonidan ko'rsatiladi), 5 ish kuni davomida. Bunday holda Abonentning maqomi Abonent tomonidan ko'rsatilgan sanadan boshlab, "Blokirovka qilingan" maqomiga o'zgartiriladi. Bunda, joriy oy uchun hisobdan chiqarilgan Abonent to'lovi va qo'shimcha bog'langan xizmatlar uchun to'lovlar bekor qilinadi, qaytarib berilmaydi va qayta hisoblanmaydi.

3.5.1.4. Shartnoma bekor qilingan vaqtda Abonent (yuridik shaxs)ning shaxsiy hisobida ijobiy saldo mavjud bo'lgan holda, Abonent pul mablag'larining bankdagi hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan qaytarilishini talab qilishga haqlidir. Muqobil variant sifatida, Abonent pul mablag'larining qoldig'ini to'liq hajmda Operator tomonidan Abonentga ko'rsatiladigan boshqa xizmatning (masalan, qayd qilingan telefoniya xizmatlarining hisobiga va b.) shaxsiy hisobiga o'tkazilishini so'rashi ham mumkin.

3.6. To'lov usullari va shakllari

3.6.1. Abonentlar to'lovlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Operatorning shartnomada ko'rsatilgan hisob raqamlariga pul o'tkazish orqali amalga oshiradilar.